

## BOLALARDA ESHITISHNING BUZULISHI, OQIBATLAR VA HOLATLARI

Ubaydullayeva Barnoxon Usmanjanovna

Andijon shahar pedagogika kolleji

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalarda eshitishning buzilishi, uning oqibatida kelib chiqadigan muammolar. Psixokorreksiya jarayonida vujudga kelgan mexanizm, holat, vaziyat bartaraf etish omili, tormozlash va oldini olish, diagnostikasi va korreksiya jarayonlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ontogenetik rivojlanish, o'ziga xos jins va yosh xususiyatlari, kognitiv, kognitiv va affektiv jabhalar, genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillar, bilish jarayonlari, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari, diagnostikasi va korreksiya jarayonlari.

Nutq – murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi – o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. Surdopedagogikada eshitishda nuqsonlari bor bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar guruhiga bo'lib o'rganiladi. [1] Tug'ma hali tili chiqmagan go'daklik davrida ikkala quloqning mutlaqo eshitmasligi karsoqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so'ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo'laveradi. Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Kar bolalarning 25–30 foizida eshitish

nuqsonlari tugʻma boʻladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas doridarmonlarni isteʼmol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik oʻzgarishlar boʻlishi, masalan, eshitish yoʻli atreziyasi – bitib qolish). Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bolalarda eshitishning roli va uning buzilishi oqibatida kelib chiqadigan psixik holatlarda maktab davrida ovoz taassurotlarining yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga homiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol oʻynaydi. Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tugʻma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofini, ximik zaharlanish, tugʻish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz taʼsirotlarining akustik taʼsirlari boʻlishi mumkin.

Oʻzbekiston bolalar huquqlari toʻgʻrisidagi Xalqaro Konvensiyani ratifikatsiya qilgan hamda BMTning bola huquqlari qoʻmitasi tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan Milliy harakat dasturini qabul qilgan davlat sifatida har bir bolaning tugʻilgan onidan boshlab oila muhitida tarbiyalanishi, uning salomatligi, aqliy va jismoniy kamoloti uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilishi davlat ahamiyatiga molik masala ekanligini amalda taʼminlashga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shu maʼnoda “Bola huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi ana shu eʼtibor va gʻamxoʻrlikning yana bir amaliy ifodasidir [2].

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ilmiy tadqiq etish boʻyicha N.V.Dobrinin, N.V.Kuzminina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, F.N.Gonobolin kabi bir qator olimlar tomonidan olib borilgan. Eshitish azolariningning fiziologik asoslarini tushuntirishda esa rus fiziologlari I. P.Pavlov, A.A.Uxtomskiylarning olib borgan ishlari muhimligi bilan ajralib turadi. Ularning taʼlimotlariga asosan, nutqning holatlari, sifatlari, xususiyatlari, birinchidan, qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining oʻzaro birgalikdagi harakati bilan, ikkinchidan, miya strukturasi hukm suruvchi qoʻzgʻaluvchanlik bilan uygʻunlikka egadir [3].

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatining oʻziga xos jihatlari oʻrganish, diagnostika va korreksiya qilishda quyidagicha belgilanadi:

- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishning umumiy va maxsus qonun-qoidalarini aniqlash;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar bilish faoliyatini rivojlanish xususiyatlarini oʻrganish;
- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini psixologik korreksiya va diagnostika qilish;

- Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarga pedagogik-psixologik ta'sir usullarini psixologik jihatdan asoslash;

- Eshitishda kamchiligi mavjud bolalarni diagnostikasi va korreksiyasi jarayonidir [4].

Idrok va xotira jarayonlarining samaradorligi va ularni boshqarish psixik jarayon bo'lmish diqqatga bevosita bog'liqdir. Eshitishda kamchiligi bor shaxslarni o'rganish va diagnostika qilish psixologning amaliy faoliyatiga yordam beradi. Ayni vaqtda psixologik diagnostikaning barvaqt amalga oshirilishi nutq bilan bog'liq salbiy holatlarning intervensiyasi uchun zamin yaratadi. Shu tariqa eshitishda nuqsoniga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qator ma'lumotlar yog'ildi. Keyingi yillar davomida eshitishda nuqsonini o'rganuvchi olimlar o'z diqqatlarini mexanizmlari va bartaraf etish usullarini o'rganishgan. Eshitishda nuqsoniga ega bolalar psixik rivojlanishini o'rganishga esa kam ahamiyat berganlar. [5] Yaqin yillardan boshlab, maxsus psixologiyani muammolariga bo'lgan qiziqish nisbatan ortdi. Eshitishda nuqsoniga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini turlicha eshitish buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion ishlarni olib borish davomida har bir eshitish kamchiliklariga aynan o'zigagina xos bo'lgan psixik jarayonlarni va xususiyatlarni o'rganish bilan bog'liqdir. Shuningdek, eshitishda kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus o'quv tarbiyaviy muassasalarda, maxsus guruhlarda olib boriladigan korreksion ishlar, ularning xalq ta'limi tizimida o'rni, bog'cha va maktab sharoitida ular bilan yakka tartibda olib boriladigan psixologik ishlarining uslub va shakllarini bayon etadilar.

Oxirgi davrlarda surdopsixologiya ta'limiy eksperiment ham ENB bolalarni o'rganishda ijobiy samara bermoqda. Bu metod yordamida tekshiriluvchining nafaqat bilimi, malakasi balki uni shakllanish holati ham o'rganiladi. Shuningdek, kombinatsiyalangan nuqsonlar (eshitish buzilishi, ruhiy rivojlanish orqada qolgan va aqli zaiflik) o'rganish va aniqlashda ham muhim samara beradi. Ta'limiy eksperiment maxsus psixologiyada keng o'rinda qo'llaniladi. T.V.Rozonova va L.I.Tigronova shu metodni qo'llagan holda ENB bolalar bilan sog'lom bolalarning ruhiy xususiyatlarini tekshirganlar. Yordamchi topshiriqlar vositasida faoliyat natijalari tahlili muhim o'rin tutadi. Ruhiy rivojlanish bosqichida bolalar faoliyati natijalari tahlili muhim o'rin tutadi [6].

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy asab markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. [7] Hozirgi kunda ekologiya masalalarining keng o'rganilishi eshitish

nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi asab tolalarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi. Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar alohida yordamga muhtoj bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. [8] Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarini o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki, bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni faollashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi. Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Hulosa qilib aytganda eshitishda nuqsoni mavjud bo'lgan shaxslarda xulqatvorning buzilishi asosida bosh miyaning peshona qismi po'stlog'i va dumsimon yadro tomonidan ta'minlanuvchi harakat faolligini tormozlovchi nazoratining pasayishi yotadi.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof - muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaymiz. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyindir. Tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali pedagogik-psixologik muammo ekanligi namoyon bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV. Toshkent sh., 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son
3. Veronova T.V. Teoriya i praktika korreksionnoy pedagogiki. - Minsk.:2007.
4. Vospitatelnaya rabota v shkole slaboslishashix. Iz opita raboti surdopedagogov. Pod red. L.V.Nikulinoy. - M.: Prosvetshenie,1981.
5. Zikova T.S., Zikova M.A. Metodika predmetno-prakticheskogo obucheniya v shkolax dlya gluxix detey. -M., "Akademiya". 2002.
6. L.M.Bikova., Ye.E.Vishnevskaya Metodika razvitiya rechi gluxix shkolnikov mladshix klassax.-L., 1999. 7. Marsinovskaya Ye.N. Osobennosti ovladeniya znaniyami i umeniyami detmi snedotsatkami sluxa. -M. Prosvetshenie,1992 .
7. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik, saylanma. 1-jild. Xalq merosi. 1993.
8. M.Inamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy-tarbiyasi. Nizomiy nomli TDPU.